

INGLIZ TILIDAGI LAQABLARNING ASSONANS VOSITASIDA
YASALISHI**A.Obidova**

doktorant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17896078>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilidagi laqablarning fonetik jihatdan shakllanishida assonans hodisasining o'рни tahlil qilinadi. Assonans — bu nutqdagi bir xil yoki o'xshash unli tovushlarning takrorlanishidir. Mazkur hodisa laqablarning ohangdorligi, esda qolarli bo'lishi va estetik jozibasini ta'minlaydi. Tadqiqot davomida assonansning inglizcha laqablarning semantik va stilistik mazmunini kuchaytirishdagi roli, shuningdek, uning boshqa fonetik vositalar — alliteratsiya va qofiyalash bilan o'zaro aloqasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: alliteratsiya, assonans, memorativ funksiya, estetik funksiya.

Fonetik vositalar, xususan, alliteratsiya va assonans, ingliz tilidagi laqab va taxalluslarning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat tovush uyg'unligini yaratadi, balki nomning mazmunini, emotsional ohangini va uslubiy ifodasini ham kuchaytiradi.

Agar alliteratsiya undosh tovushlarning takrori orqali hosil bo'lsa, assonans unli tovushlarning takrorlanishiga asoslanadi. Bu hodisa nomning musiqiylik darajasini oshiradi va uni quloqqa yoqimli, yodda qolarli qiladi. Shu sababli assonans hodisasi ko'pincha satira, yumor va badiiylik unsurlari bilan uyg'unlashgan laqablar hosil qilishda ishlatiladi.

Assonans (lot. assonare — “tovushlashmoq”) — bu nutq parchasida bir xil yoki o'xshash unli tovushlarning takrorlanishi natijasida hosil bo'ladigan fonetik uyg'unlikdir. Ingliz tili so'z boyligida bu hodisa qadimiy she'riyat va xalq og'zaki ijodida keng qo'llangan bo'lib, keyinchalik u individual nomlar, laqablar va sahna taxalluslarining shakllanishida ham o'z aksini topgan.

Assonansning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Estetik funksiyasi – laqabga musiqiylik va ohangdorlik beradi.
2. Emotsional funksiyasi – nomni kinoyaviy, quvnoq yoki hajviy tusda aks ettiradi.
3. Memorativ funksiyasi – tovush uyg'unligi tufayli laqabni yodda saqlashni osonlashtiradi

Ingliz tilida assonans vositasi bilan yaratilgan laqablar, odatda, ijobiy yoki salbiy konnotatsiyaga ega bo'ladi. Quyida ba'zi tahliliy misollar keltiriladi.

1. “Lanky-Panky”

Mazkur laqab odatda oriq, uzun bo'lyli yoki sust harakatli kishilarga nisbatan hazil tariqasida ishlatiladi. “Lanky” — “cho'zilgan, oriq”, “Panky” esa ma'nosiz,

lekin ritmik soʻz sifatida ishlatiladi. Ikkala soʻzda ham /æ/ unlisining takrori mavjud boʻlib, bu tovush uygʻunligi laqabni kulgili va esda qolarli qiladi. Bunday laqablar koʻpincha bolalar oʻyinlari yoki doʻstona muhitda ishlatiladi.

2. “Crumpet-Stuffer”

“Crumpet” — ingliz millatiga xos non mahsuloti, “stuffer” esa “toʻyib yeyuvchi” degan maʼnoni bildiradi. Ikkala komponentda ham /ʌ/ unlisining takrori mavjud. Bu takrorlik laqabni ohangdor va kulgili qiladi. Shu bilan birga, bu laqab ingliz millatining stereotipik “ovqatni sevuvchi xalq” degan tasavvurini kinoyaviy tarzda ifodalaydi.

3. “Beaver-Beater”

Bu laqab Kanadadagi moʻyna savdosi bilan bogʻliq tarixiy stereotipga asoslangan. “Beaver” (qunduz) va “Beater” (uruvchi, ovchi) soʻzlarida /i:/ unlisining takrori mavjud. Assonans bilan birga /b/ undoshining takrori natijasida alliteratsiya ham hosil boʻladi. Shu tarzda fonetik uygʻunlik nomni kuchliroq, jarangdorroq qiladi va semantik maʼnoni — “qunduz ovchisi” obrazini yanada jonliroq ifodalaydi.

4. “Thick Mick”

Bu laqab irland millatiga mansub shaxslarga nisbatan salbiy kinoya bilan ishlatilgan. “Thick” — “ahmoqona, sekin fikrlovchi”, “Mick” esa irland erkaklariga xos ism shaklidir. /ɪ/ unlisining takrori laqabni ritmik, lekin haqoratli tusda eshitiladigan qiladi. Assonans bu yerda stereotipni esda qolarli shaklda mustahkamlaydi.

Assonans orqali yaratilgan laqablar, bir tomondan, tilning musiqiy imkoniyatlarini namoyon etsa, boshqa tomondan, ijtimoiy va madaniy konnotatsiyalarni ham ifodalaydi. Ingliz tilidagi bunday laqablar koʻpincha stereotiplarni mustahkamlash, kulgi yoki kinoya yaratish vositasi sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, ular badiiy adabiyotda obrazni kuchaytirish, xarakterga emotsional ohang berish yoki xalq nutqiga yaqinlashtirish maqsadida qoʻllanadi.

Masalan, Roald Dahl yoki Charles Dickens kabi yozuvchilarning asarlarida laqablar orqali personajlarning tashqi qiyofasi, xarakteri yoki ijtimoiy mavqeini ochib beruvchi tovush oʻyinlari keng qoʻllanadi. Dickensning “Tiny Tim” (kichik Tim) laqabida ham /ɪ/ unlisining takrori orqali assonans hosil boʻlib, u bolaning zaifligi va samimiyligini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, assonans hodisasi ingliz tilidagi laqablarning shakllanishida muhim fonetik vosita sifatida xizmat qiladi. U nomga ohangdorlik, ritm, musiqiylik va semantik aniqlik beradi. Shu bilan birga, laqabning emotsional

kuchini oshiradi, uni yodda qolarli va madaniy jihatdan rang-barang qiladi. Ingliz tili madaniyatida assonans orqali yaratilgan laqablar nafaqat fonetik go'zallikni ifodalaydi, balki xalq psixologiyasi, stereotiplar va ijtimoiy munosabatlarning til vositasidagi aksidir.

Shunday qilib, assonans laqablar tizimida fonetik-estetik, semantik va ijtimoiy-funksional ahamiyat kasb etadi hamda ingliz tili onomastikasining o'ziga xos fonetik boyligini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Galperin, I. R. Stylistics. Moscow: Higher School, 1981.
2. Crystal, D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Oxford: Blackwell, 2008.
3. Algeo, J. The Origins and Development of the English Language. Cengage Learning, 2010.
4. Bunker, L. Little Boy Blue. London: Sphere Books, 1981.
5. Dahl, R. Charlie and the Chocolate Factory. London: Penguin, 1964.

